


**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi**

**70811805- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura  
mutaxassisligining malaka talablari**



**Toshkent -2023**

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti;

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» avgust dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi .....	4
1.1	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi .....	4
1.2.1.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar. ....	8
2.3.1	Kvalifikatsiya: .....	8
2.3.2.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar: .....	8
2.3.3.	70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi:.....	9
	Bibliografik ma‘lumotlar .....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

## **1. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi**

**70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining o'quv muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

#### **1.2.1. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik** sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, O'zbekiston fermer, dehqon va tomorqa er egalari Kengashi va uning hududiy bo'limlari, ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruviga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek sabzavotchilik tarmoqlari va sohalarini rivojlantirishda oziq-ovqat xavfsizlikni ta'minlash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 70811805 - Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- yer, suv, energetika va moddiy texnik resurslar, q/x texnikasi jarayonlari;

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarini ishlab chiqarish jarayoni;



- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi jarayoni;

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlari turlarining assortimenti;

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlari ko'chatchiligi jarayonlari;

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarini parvarishlash texnologiyasi jarayonlari;

- kimyoviy va biologik kurash vositalari;

- sabzavot va poliz ekinlari mahsulatini ishlab chiqarish korxonalarida va tashkilotlarida boshqaruv ko'rsatkichlarining tahlili jarayonlari.

### **1.2.3. 70811805- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- ilmiy tadqiqot faoliyati;

- pedagogik faoliyat;

- loyiha -texnologik faoliyat;

- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

- ishlab chiqarish va servis xizmat ko'rsatish faoliyati;

### **1.2.4. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:**

**70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik** mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

– ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

– ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

– ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

– ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

– o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Loyiha -texnologik hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik sohasini boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- oziq-ovqat xavfsizligini oldini olishda ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik sohasi samaradorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

- O'zbekiston hamda xorijda sohaga oid ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda mahsulot ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash;

- **Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik** ekinlari ekilgan maydonlarini monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va servis xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- agrosanoat majmui korxonalari, tashkilotlar, fermer xo'jaliklarida mehnat faoliyatini tashkil etish;

- soha faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik yangi texnologiyalarni joriy etish, resurstejamkor texnologiyalar bo'yicha takliflar va ixtirolar bo'yicha samaradorlikni aniqlash;

- sohaga oid qabul qilingan qarorlarni ijrosi, boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, agrotexnik tadbirlarni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- olib borayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha informatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

**2. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umum metodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;



- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va monitoringini olib borish;
- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbqiq etish;
- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashirish va tahlil etish;
- o'quv fanlari bo'yicha zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;
- uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;
- dala ekinlarining eng serhosil navlarini tanlash, etishtirish texnologiyalari hamda ko'paytirish usullari bo'yicha fermer xo'jaliklari va shaxsiy tomorqa egalariga maslahat berishi;
- sabzavotchilikda innovatsion ishlanmalar bo'yicha tahlillarni o'tkazish va ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;
- ixtisoslikka mos turli xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirishni bilish.
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarini yetishtirishning ilg'or texnologiyalarni qo'llash;
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarida eksperimental izlanish ishlarini namunaviy uslubiyatiga asosan mustaqil o'tkazish va ulardan olingan natijalarga ishlov berish;
- ishlanmalar bo'yicha ilmiy hisobotlar tayyorlash;
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarining yangi navlarini yetishtirish usullarini ishlab chiqarishda sinab ko'rish;
- ilmiy ishlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik sohasida o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhlarini ishlab chiqishi, referatlar va bibliografiyalarini tuzish;
- ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etishi va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy matbuotlariga maqolalar tayyorlash;
- innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etishi lozim.
- agrofirma yoki boshqa shakldagi xo'jaliklarning texnologiy bo'lib ishlash;
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarining yangi navlaridan foydalanishni asoslash;
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarini yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;
- ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni bajarilish sifatini naorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter texnikalar va kommunikatsion vositalarni amaliyotda qo'llash;
- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik ekinlarini ko'paytirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilishi lozim.
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning eksploatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish va boshqalar.

**70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda** innovatsion ishlanmalar bo'yicha tahlillarni o'tkazish va ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

- ixtisoslikka mos turli xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirishni bilish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga quyidagi talablar.**

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistr mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – mutaxassislik va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Mutaxassislik fanlaridan o'rganilgan bilimlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda talabalarga nazariy va amaliy o'rgatishda bevosita ishtirok etadi.

Bundan tashqari o'zining pedagogik maxoratini oshiradi va pedagog bo'lib shakllanishiga qaratilgan.

#### **2.3.1 Kvalifikatsiya: Agronom sabzavotchi, polizchi, tadqiqotchi - pedagog**

#### **2.3.2. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikgi mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

<b>O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari</b>	<b>Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat</b>	<b>Ajratilgan kredit</b>
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

#### **2.3.3. 70811805 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikgi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**



T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>	<b>MFM2446</b>	<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1380</b>	<b>46</b>	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	SPKITUM1404	Sabzavot, poliz va kartoshkachilikda ilmiy-tadqiqot uslublari	120	4	1
1.04	JAHSBM2404	Jahon sabzavotchiligi	120	4	3
1.05	SPEKB1AM1406	Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka biologiyasining ilmiy asoslari	180	6	1
1.06	SPKEGM1406	Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarining genofondi	180	6	2
1.07	SPKEYITM2406	Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari yetishtirishning innovatsion texnologiyasi	180	6	3
1.08	SPENDYANAM2406	Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarining nav va duragaylarini yaratishning nazariy asoslari	180	6	3
1.09	SPKUYYTM1406	Sabzavot, poliz va kartoshka urug'larini yetishtirish texnologiyalari	180	6	1
<b>2.00</b>	<b>TFM2414</b>	<b>Tanlov fanlari</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	
2.00		Tanlov fanlari	420	14	
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00</b>	<b>IFM2460</b>	<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.01	ITIMD2436	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02	IPI2412	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IATO2412	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 635  
OKS 01.040.01

Guruh T 55

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, sabzvotchilik, polizchilik, magistratura, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kadrlarga talab, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektori  S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.



Termiz agrotexnologiyalar va  
innovatsion rivojlanish instituti

Rektori v.b.  A. Jo'rayev

202 yil « 20 » 07

M.O'.



Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti

Rektor  K. Komilov

202 yil « 19 » 07

M.O'.



O'simliklar genetik resurslari  
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  S. Aliqulov

202 yil « 17 » 07

M.O'.



Sabzavot, poliz ekinlari va  
kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori  R. Nizomov

202 yil « 18 » 07

M.O'.



Akademik M. Mirzayev nomidagi  
Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik  
ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori  U. Abduganiyev

202 yil « 18 » 07

M.O'.





## TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

**70811805- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

### KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori S.Y.Islamov, Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti rektori v.b A. Jo'rayev, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori K.Komilov, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktor S.Aliqulov, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktor R.Nizomov, Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori U.Abduganiyev birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70811805- Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat agrar universiteti  
birinchi prorektori**

S.Ya. Islamov

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion  
rivojlanish instituti rektori v.b.**

A. Jo'rayev

**Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti rektor**

K.Komilov

**O'simliklar genetik resurslari  
ilmiy-tadqiqot instituti direktor**

S.Aliqulov

**Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik  
ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

R.Nizomov

**Akademik M. Mirzayev nomidagi  
Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik  
ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

U.Abduganiyev